Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 070

JAMIYATDA MIGRANT AYOL STEREOTIPINING SHAKLLANISHI VA OAVDA TALQINI

Ozoda Choriyeva*
“Migrant-Info” axborot portali muxbiri
✉ ozodachorieva62@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda migrant ayollarga nisbatan jamiyatda shakllangan stereotiplar, ularning ijtimoiy-madaniy ildizlari va ommaviy axborot vositalarida namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tahlilda migrant ayollarning mehnat huquqlari, zo‘ravonlik, kamsitish va tibbiy xizmatlardan foydalanishiga oid jurnalistik materiallar misolida OAVning axborot berish bilan bir qatorda ijtimoiy muammolarni ochib berish va huquqiy xabardorlikni oshirishdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar

migrant ayollar, stereotip, media, gender, konstruktiv jurnalistika, media etikasi, inson huquqlari.

DOI: 10.5281/zenodo.23281866

KIRISH

Globallashuv va mehnat migratsiyasining kengayishi natijasida ayollarning xalqaro mehnat bozoridagi ishtiroki ortib bormoqda. Ayollar xorijga iqtisodiy ehtiyoj, oilasini moddiy ta’minlash, farzandlari kelajagini yaxshilash va kasbiy rivojlanish kabi turli maqsadlarda yo‘l oladi. Biroq ularning migratsiyasi jamiyatda bir xil qabul qilinmaydi. Ayrim hollarda migrant ayollarga nisbatan salbiy qarashlar, axloqiy baholash va kamsituvchi munosabatlar kuzatiladi.

O‘zbek jamiyatida ayolning an’anaviy ijtimoiy roli ko‘pincha oila, farzand tarbiyasi va uy-ro‘zg‘or bilan bog‘lanadi. Erkakning xorijga ishlash uchun ketishi oilani ta’minlash mas’uliyati sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lsa, ayolning xuddi shu maqsadda migratsiya qilishi ayrim hollarda salbiy baholanadi. Natijada ayolning iqtisodiy ehtiyoji va mehnat qilish huquqidan ko‘ra, uning shaxsiy hayoti va axloqiy qiyofasiga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Mazkur qarashlarning shakllanishi va mustahkamlanishida ommaviy axborot vositalari ham muhim rol o‘ynaydi. Media muayyan voqealarni tanlash, ularga sarlavha qo‘yish, qahramonlarning fikrini berish va hodisani muayyan nuqtayi nazardan talqin qilish orqali auditoriyaning ijtimoiy guruhlar haqidagi tasavvuriga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli migrant ayollar mavzusini yoritishda jurnalistik xolislik, kasb etikasi va inson huquqlariga hurmat masalalarini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Stereotip tushunchasi Uolter Lippmann tomonidan jamoatchilik fikrini o‘rganish doirasida ilmiy muomalaga olib kirilgan. Olimning qarashlariga ko‘ra, insonlar murakkab voqelikni anglashda ko‘pincha oldindan shakllangan soddalashtirilgan tasavvurlarga tayanadi. Styuart Xollning reprezentatsiya nazariyasi esa media voqelikni shunchaki aks ettirmasligi, balki unga muayyan ma’no berishda ham ishtirok etishini tushuntiradi. Bu nazariyalar migrant ayollar obrazini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Migrant ayollarga nisbatan shakllangan stereotiplarning asosiy ko‘rinishlaridan biri ularni axloqiy jihatdan baholash va salbiy hodisalar bilan umumlashtirib tasvirlashdir. Xususan, xorijda odam savdosi, zo‘ravonlik yoki jinoyat bilan bog‘liq voqealar haqida tayyorlangan ayrim materiallar migrant ayollarning murakkab hayotiy sharoitlarini to‘liq ochib bermasdan, ularning shaxsiy qarorlariga urg‘u beradi. Bunday yondashuv xori-

jda halol mehnat qilayotgan, oilasini ta’minlayotgan va kasbiy faoliyat olib borayotgan ayollarning tajribasini e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. Jorj Gerbnerning kultivatsiya nazariyasiga ko‘ra, media orqali muayyan obrazlarning takroran namoyish etilishi auditoriyaning real hayot haqidagi tasavvurlariga ta’sir qiladi. Agar migrant ayollar haqidagi materiallarda muntazam ravishda fojia, jinoyat va axloqiy ziddiyatlar markazga chiqarilsa, jamoatchilikda ushbu guruhga nisbatan biryoqlama munosabat shakllanishi ehtimoli ortadi. Demak, muammo faqat alohida materialning mazmunida emas, balki media makonida qaysi obrazlar ko‘proq takrorlanishida ham namoyon bo‘ladi.

Migrant ayollar mavzusidagi yana bir muammo — jabrlanuvchini ayblash amaliyotidir. Zo‘ravonlikka uchragan, ish haqi to‘lanmagan yoki aldov qurboniga aylangan ayollar haqida jamoatchilik muhokamalarida ba’zan jinoyatchi yoki ish beruvchining javobgarligidan ko‘ra, ayolning xorijga ketgani, kimga ishongani yoki qanday qaror qabul qilgani muhokama qilinadi. Natijada e’tibor muammoning asl sabablaridan chetga chiqib, jabrlanuvchining xatti-harakatlarini baholashga qaratiladi. Professional jurnalistika esa voqeaning huquqiy va ijtimoiy omillarini o‘rganishi, zo‘ravonlik va ekspluatatsiya uchun javobgarlikni jabrlanuvchining zimmasiga yuklamasligi kerak. Media migrant ayollarni ko‘pincha ikki qarama-qarshi obrazda — mutlaqo ojiz jabrlanuvchi yoki salbiy axloqiy qahramon sifatida tasvirlashi mumkin. Bunday yondashuv ayolning mustaqil qaror qabul qilish, o‘z huquqlarini himoya qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini yetarlicha ko‘rsatmaydi. Aslida migrant ayol turli ijtimoiy vaziyatlarda qaror qabul qiladigan, mehnat qiladigan, muammolarga qarshi kurashadigan va o‘z hayoti uchun mas’uliyatni zimmasiga oladigan faol subyektdir.

Bu jihatni migrant ayollarning mehnat muhitidagi kamsitish va adolatsizliklarga munosabatini yorituvchi jurnalistik materiallarda ham ko‘rish mumkin. Masalan, “Migrant.uz” portalining “Odam ajratish” nomli videolavhasida qahramonning kamsituvchi munosabatga befarq qolmasligi va adolat talab qilishi muhojir ayolni faqat ojiz qurbon sifatida tasvirlashdan farqli yondashuvni namoyon etadi. Ushbu misol jurnalistik materiallarda ayolning muammosi bilan bir qatorda uning pozitsiyasi, harakati va mustaqil fikrini ham ko‘rsatish muhimligini anglatadi.

Migrant.uz portalida e’lon qilingan “Eshitilmagan ovoz: tegajog‘lik, zo‘ravonlik va tengsizlik — muhojir ayollar iztiroblari” hamda “Ertalabgacha do‘pposlab, zo‘rladi! Muhojir ayollar faryodi” kabi materiallarda migrant ayollarning mehnat va yashash sharoitidagi muammolar yoritilgan. Ushbu materiallar mavzuni faqat alohida shaxsning fojiasi sifatida emas, balki zo‘ravonlik, gender tengsizligi va huquqiy himoya bilan bog‘liq masala sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bunda ekspertlarning huquqiy izohlari va amaliy tavsiyalari auditoriyaning muammo haqidagi xabardorligini oshirishga xizmat qiladi.

Migrant ayollarning tibbiy xizmatlardan foydalanishi bilan bog‘liq masalalar ham media tahlilida alohida o‘rin tutadi. “Rossiya, migrant ayol: ‘Shifokor mendan jirkanib haydadi’ ” nomli videomaterialda tibbiy xizmat olish jarayonidagi kamsitish va muammolar masalasi ko‘tarilgan. Bunday mavzularni yoritishda ayolning individual tajribasini bayon qilish bilan cheklanmasdan, tibbiy sug‘urta, qonuniy maqom, ish beruvchining majburiyatlari va mavjud huquqiy imkoniyatlarni ham tushuntirish zarur. Bu yondashuv muammoning sabablarini kengroq tahlil qilish va auditoriyaga amaliy ma’lumot taqdim etish imkonini beradi.

Shuningdek, “Rossiyada migrant ayollar nega bolasidan voz kechishadi?” nomli materialda ayollar duch keladigan murakkab ijtimoiy vaziyatlar, iqtisodiy qiyinchiliklar va huquqiy muammolar muhokama qilingan. Bunday nozik mavzularni yoritishda ayollarni ayblash yoki ularning shaxsiy hayotini sensatsiyaga aylantirishdan qochish, qarorlar ortidagi sharoitlarni o‘rganish va tegishli mutaxassislar fikriga murojaat qilish muhimdir.

Migrant ayollarning ijtimoiy obrazini xolis shakllantirishda konstruktiv jurnalistika imkoniyatlari keng. Konstruktiv jurnalistika muammoni yashirishni yoki faqat ijobiy voqealarni yoritishni anglatmaydi. Aksincha, u muammoning sabablarini tahlil qilish, mavjud yechimlarni ko‘rsatish va jamoatchilikka asosli ma’lumot berishni nazarda tutadi. Masalan, xorijda huquqlari buzilgan ayol haqidagi materialda voqea tafsilotlari bilan birga huquqiy yordam olish yo‘llari, tegishli tashkilotlar va himoya mexanizmlari haqida ham ma’lumot berilishi mumkin.

Bundan tashqari, xorijda muvaffaqiyatga erishgan, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan yoki o‘z tajribasi orqali boshqa ayollarga yordam berayotgan migrant ayollar haqidagi materiallar ham muhimdir. “Hoshiya”

podkastining “Migrantlikdan yil ayoligacha: o‘zga yurtda non topayotganlar” nomli sonida Gulmira Jumayeva misolida mehnat migratsiyasidan tadbirkorlik faoliyatigacha bo‘lgan yo‘l yoritiladi. Bunday hikoyalar migrant ayollarni faqat yordamga muhtoj shaxs sifatida emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi sifatida ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, jurnalistning kasbiy mahorati mavzuni tanlash, qahramon bilan muloqot qilish, dalillarni tekshirish va voqeani xolis talqin etish bilan belgilanadi. Zo‘ravonlik yoki ekspluatatsiyaga uchragan ayollar haqida material tayyorlashda ularning shaxsiy hayoti va xavfsizligini himoya qilish, roziligini olish, shaxsini oshkor etish oqibatlarini hisobga olish hamda kamsituvchi iboralardan foydalanmaslik zarur. Bu tamoyillar nafaqat jurnalistikaning axloqiy talablariga, balki inson qadr-qimmatini hurmat qilish prinsipiga ham mos keladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, migrant ayollarga nisbatan shakllangan stereotiplar ijtimoiy-madaniy qarashlar va media talqinining o‘zaro ta’siri natijasida mustahkamlanishi mumkin. Ayollar migratsiyasini faqat jinoyat, zo‘ravonlik yoki axloqiy ziddiyatlar doirasida yoritish ularning hayotiy tajribasini biryoqlama aks ettiradi. Jabrlanuvchini ayblash, salbiy obrazlarni umumlashtirish va ayolning mustaqil pozitsiyasini e’tiborsiz qoldirish esa mavjud stereotiplarni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli migrant ayollar mavzusini yoritishda jurnalistlar xolislik, gender sezgirligi, inson huquqlariga hurmat va kasb etikasi tamoyillariga amal qilishi lozim. Muammolarni ijtimoiy-huquqiy sabablar bilan birgalikda tahlil qilish, ekspert fikrlariga tayanish, amaliy yechimlarni ko‘rsatish va ayollarning faol ijtimoiy rolini yoritish muhim ahamiyatga ega. Natijada OAV migrant ayollar haqidagi jamoatchilik tasavvurini xolislashtirish, kamsituvchi qarashlarni kamaytirish va ijtimoiy muammolar yechimiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lippmann W. *Public Opinion*. — New York: Harcourt, Brace and Company, 1922.
2. Hall S. *Representation: Cultural Representations and Signifying Practices*. — London: Sage Publications, 1997.
3. Gerbner G., Gross L., Morgan M., Signorielli N. Growing Up with Television: The Cultivation Perspective // *Media Effects: Advances in Theory and Research*. — Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1994. — P. 17–41.
4. Cohen S. *Folk Devils and Moral Panics: The Creation of the Mods and Rockers*. — 3rd ed. — London: Routledge, 2002.
5. McIntyre K., Gyldensted C. Constructive Journalism: An Introduction and Practical Guide for Applying Positive Psychology Techniques to News Production // *The Journal of Media Innovations*. — 2017. — Vol. 4(2). — P. 20–34.
6. Reeves M. Staying Put? Towards a Relational Politics of Mobility at a Time of Migration // *Central Asian Survey*. — 2011. — Vol. 30(3–4). — P. 555–576.
7. Migrant.uz axborot-tahliliy portali. Muhojir ayollar muammolariga bag‘ishlangan materiallar: “Odam ajratish”. https://www.youtube.com/shorts/L2BvGnZGA5s “Eshitilmagan ovoz: tegajog‘lik, zo‘ravonlik va tengsizlik — muhojir ayollar iztiroblari”. https://migrant.uz/uz/eshitilmagan-ovoz-tegajog-lik-zo-ravonlik-va-tengsizlik-muhojir-ayollar-iztiroblari/ “Rossiya, migrant ayol: ‘Shifokor mendan jirkanib haydadi’ ”. https://www.youtube.com/watch?v=7yKWCKV8de0 “Rossiyada migrant ayollar nega bolasidan voz kechishadi?”. https://www.youtube.com/watch?v=YxWhOqsO0Mc
8. “Hoshiya” podkasti. “Migrantlikdan yil ayoligacha: o‘zga yurtda non topayotganlar”. https://www.youtube.com/watch?v=6TM62HeYKbc